

BADIIY ASAR TILI IJODIY TAFAKKURNING NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARIDAN BIRI SIFATIDA

Dilrabo Allanazarovna ERGASHEVA

doktorant

Filologiya fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori

Termiz davlat universiteti

Termiz, O‘zbekiston

e-mail: ergashevad@tersu.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy asar tilidagi ichki monologlar orqali inson tafakkuriga xos bo‘lgan tahlil qilish, umumlashtirish, konkretlashtirish, zidlash kabi aqliy faoliyat amallari badiiy matnda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi tadqiq etilgan. Bunda matn yaratuvchi shaxs o‘zi tavsiflayotgan obyektga ijodiy yondashib, uning ochilmagan qirralarini o‘ziga xos tarzda ko‘rsatib berishga harakat qiladi. Bu kabi tafakkur amallari badiiy matnda o‘z ifodasini topadi. Badiiy matnda tafakkur amallarini nutqiy tuzilmadagi in‘ikosi nuqtai nazaridan tadqiq etish uning lingvopoetik, antropotsentrik, psixolingvistik xususiyatlarini yoritishda ma‘lum ahamiyat kasb etishi mahoratli ijodkor Odil Yoqubov asarlaridan olingan monologlar asosida tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: ichki monolog, badiiy so‘z tahlili, ijodiy tafakkur, adabiy til uslubi, nutqiy jarayon, nutqiy san‘at, lisoniy maydon, muallif nutqi, tilning badiiy-estetik vazifasi.

ЯЗЫК ПРОИЗВЕДЕНИЯ ИСКУССТВА КАК ОДНА ИЗ ФОРМ ВЫРАЖЕНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ МЫСЛИ

Дилрабо Алланазаровна ЭРГАШЕВА

Докторант

Доктор философии по (PhD) филологическим наукам

Термезский государственный университет

Термиз, Узбекистан

e-mail: ergashevad@tersu.uz

Аннотация

В данной статье анализируется уникальное проявление характерных для человеческого мышления умственных действий, таких как анализ, обобщение, конкретизация и сопоставление, в литературном тексте посредством внутренних монологов на языке произведения искусства. При этом создатель текста творчески подходит к описываемому объекту и пытается по-своему показать его неизведанные аспекты. Такие акты мышления находят свое выражение в литературном тексте. Тот факт, что изучение литературного текста с этой точки зрения, то есть с точки зрения отражения актов мышления в структуре речи, имеет особое значение для освещения его лингвопоэтических, антропоцентрических и психолингвистических особенностей, проанализирован на основе монологов из произведений талантливого художника Одиля Якубова.

Ключевые слова: внутренний монолог, анализ художественной речи, творческое мышление, литературный стиль языка, речевой процесс, искусство речи, лингвистическая область, авторская речь, художественно-эстетическая функция языка.

Tilshunoslik fani badiiy nasrni milliy tilning yashash shakllaridan biri, adabiy til uslublarining o'ziga xos ko'rinishi, tilning badiiy-estetik vazifalarini yuzaga chiqaruvchi nutqiy jarayon, nutqiy san'at va mahorat qirralarini namoyon etuvchi o'ziga xos lisoniy maydon tarzida tushunadi va o'rganadi. Insonning olamni anglash, idrok etish va qabul qilish salohiyati beqiyos. Shuning uchun tashqi olam uning ichki olamiga bimalol jo bo'ladi. Ammo har bir hodisa shu insonning ong va qalb prizmasidan qanday o'tadi va qayta akslanish qay tarzda sodir bo'lishini hech kim, hech qachon ayta olmaydi. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, insonning ichki olami tashqi olamdan ko'ra kengroq, rang-barangroq deyishga to'la haqlimiz. Inson haqida gap ketganda, "inson olami", "insonning ichki dunyosi" kabi atamalar bejiz qo'llanmaydi. Zotan, har bir inson alohida bir olam va uning ma'naviyati, axloqiy darajasi, fe'l-atvori va xatti- harakati bevosita ana shu ichki dunyo qiyofasi, ichki olam ko'rinishi orqali baholanadi. Insonning ma'naviy olami esa, o'zini aql-zakovat, tafakkur, iroda va eng asosiysi, ko'p asrlardan beri tilshunoslar, tibbiyotchilar, ruhshunoslar, faylasuflarning tadqiqot manbaiga aylangan o'zaro nutqiy munosabatlar orqali namoyon etadi [1].

Ma'lumki, tafakkur inson ma'naviyatining tarkibiy qismi, bilishning olamdagi narsa va hodisalarning umumiy, muhim hususiyatlarini aniqlaydigan, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlarni aks ettiradigan aqliy bosqichidir [6]. Bu bosqichda narsa va hodisalarning yangi xususiyatlari kashf qilinadi. Ular o'rtasidagi aloqadorlikning yashirin qirralari ochib beriladi. Bunda tafakkurning moddiy shakli bo'lgan badiiy til olamning lisoniy manzarisini yaratish bilan birga insonning voqelikka nisbatan o'zgacha, o'ziga xos munosabatini ham namoyon etadi. Badiiy asar tili ijodiy tafakkurning namoyon bo'lish shakllaridan biri sifatida antropotsentrik mohiyat kasb etadi.

Psixologik nuqtai nazardan matn individning nutqiy tafakkufi mahsuli, obyektiv borliqni til tizimi vositasida aks ettirish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda matnning shakli va mazmuni muayyan kommunikativ vaziyat qatnashchisi – konkret shaxsning psixologik xususiyatlari bilan uzviylikda tahlil qilinadi [8].

Ichki monolog qahramon xarakter-xususiyatini, ruhiyatini tasvirlashning eng muhim vositalaridan biri bo‘lib, uning asrlar davomida sayqallangan turli shakllaridan inson ruhiyatini ochib berishda keng foydalanilmoqda. Ichki monolog qahramonlarning og‘ir ruhiy holatlarini, birovga aytib bo‘lmaydigan yashirin, iztirobli dardlarini ichidan (ovoz chiqarmasdan) tahlil qilib kitobxonga yetkazadigan nutqdir.

Inson ruhiyatining badiiy tahlili – so‘z san’atining asosiy belgisi, uning tub mohiyatini belgilovchi sifatidir [7]. Zotan, insonshunoslikni shaxsning ruhiy dunyosidan ajratib tasavvur etib bo‘lmaydi. Insonning ruhiy dunyosi o‘zaro suhbatlarda, tortishuvlarda, diolog va monologlar vositasida ochiladi. Har bir davrning yozuvchi va shoirlari o‘z asarlarini o‘qimishli va jo‘shqin qilish uchun qahramonlarining ruhiyatini munozaralarda, bahslarda, o‘zaro tortishuvli suhbatlarda ochib ko‘rsatadi. Bu vazifalarni bajarishda yozuvchi faqat til mahoratiga suyanadi. Til orqali yozuvchi asar qahramonlarining murakkab, o‘ziga xos xarakterli xususiyatlarini hamda sharoit va muhitning inson ruhiyatiga ta’sirini tahlil qiladi. Inson ruhiy holatining rang-barangligi uning nutqida, so‘zlash tarzida yaqqol aks etadi. Odil Yoqubov o‘zining “Ulug‘bek xazinasi”, “Diyonat”, “Ko‘hna dunyo”, “Osiy banda” romanlarida qahramon ruhiy holatini yoritishda monologdan foydalanish mahoratini namoyon qila olgan. Yozuvchi o‘z asarlarini yaratishda turli til xususiyatlaridan foydalanib, shaxs tafakkurini ochib bergan mohir ijod sohibi edi. Uning “Diyonat” romani uslubiy jihatdan o‘ziga hos bo‘lib, unda yozuvchi ichki monolog imkoniyatlaridan keng foydalangan. Yozuvchining mahorati shundaki, asardagi asosiy harakterlarning badiiy vaqt doirasida turli vaziyatdagi ko‘rinishlariga ko‘proq e’tibor qaratadi. Bu harakterlarning shakllanish tarixi esa asosan ichki monologlar orqali beriladi. Nasriy asarlar uchun muallif

nutqi bunday san'at asarining go'zalligini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgu sanaladi va ko'pincha turli xil monologlar shaklida ko'rinadi. Normurod Shomurodov butun umrini xalq ishiga, adolat, diyonat uchun kurashga sarflagan. Uning harakteri uchun prinsipiiallik, sofdillik, kecha-yu kunduz tinim bilmaslik kabi olijanoblik xislatlari xos. Bu keksa chol ichki monologlarining mazmuni, xarakterini uning ana shu fazilatlarini belgilaydi. Asar qahramoni Normurod Shomurodovning birinchi katta monologida o'tmish haqidagi xotira-o'ylari yotadi. Bu xotira-o'ylar assotsiativ holatda biri ikkinchisini boshlab kelaveradi: *"U (Normurod Shomurodov) bilardi – kampirning dardi oshkora aytilmaydigan, biroq qalbida so'nmas bir dard bo'lib qolgan yolg'iz o'g'illari Jabborga borib taqalardi. Agar Jabbor tirik bo'lganida, agar u urushda o'lib ketmaganda, kampir hozir shu ahvolda o'tirarmidi, uning o'zi, kimsan Normurod Shomurodovning o'zi shu ko'yga tusharmidi?... [2;19].* Shundan keyin Normurod Shomurodov tomonidan Jabbor, Fazilat, Bo'riboyevlar tarixi eslanadi. Asarda Normurod Shomurodovning xotini Gulsara vafotidan keyingi hayotidagi voqealar ichki monologlar yordamida yanada chuqur tasvirlangan. Bu ichki monologlardagi undovlar, pauza, fikrlardagi mantiqning buzilishi, ruhiy "sakrashlar"ning tabiiyligi asar qadr-qimmatini yanada oshiradi: *"Bas! Nima qilasan, xasta yuragingni tilka-pora qiladigan esdaliklar bilan o'zingni egovlab? Endi kimga kerak bu alamli xotiralar? Oshingni oshab, yoshingni yashab bo'lding! Endi qolgan besh kunlik umringni beg'alva-betashvish o'tkazishni o'ylasang-chi, Normurodvoy! Mana, mol-dunyong, kitob-pitoblaring bilan ko'chib kelding. Dunyoga kelib orttirgan eng katta boyliging – shu kitoblar! Salkam o'n ming jild kitob! O'shalarni o'qib, mutolaa qil. Yoshlarga ulash. O'qishsin. Bahramand bo'lishsin. Oxirgi paytlardagi eng ulug' orzung shu edi-ku. Shu ish bilan o'zingni ovuntir, taskinu tasalli ol. Bu chirkin o'ylar bilan dilingni namozshom qilishdan na foyda, og'ayni? [2; 25].* Romanda ichki monologik nutq inson ruhiy holatini ochib berishda muhim vosita ekanligini Shomurodov bilan Otaqo'zi obrazlari orqali ko'rish mumkin: *"Umring diqqinafas bir ilm dargohida o'tgan, suyaging kitob bilan qotgan bir odam, sen bu hayot qonunlarini qayoqdan bilasan, qoqbosh chol?... Bas! Bo'ldi! Loaqal endi, bu muqaddas qabr tepasida*

munofiqlik qilma, loaqal endi, hayotning bu raxmsiz xujumi oldida halollikni, diyonatni o'yla, Otaqo'zi" ?... [2; 365]. Bu monologni o'qigan inson mazkur ichki nutqlar, ichki tug'yonlar muallifnikimi, qahramonnikimi? – deb o'ylashi tabiiy. Sababi nutqlarda berilgan“... qayoqdan bilasan, qoqbosh chol”, yoki “... halollikni diyonatni o'yla Otaqo'zi! ...” kabi so'zlarni qahramon emas, yozuvchi emas, yana bular o'rtasidagi boshqa bir kishi aytayotgandek tuyuladi. Yuqoridagi matnda Shomurodov bilan Otaqo'zi monologlarini o'zlari yashirin, hech kimga sezdirmay ichdan gapirishi ifodalangan. Muallifning nutqi esa ularga qo'shilib ketyapti, qahramonlarning ruhiyatini bo'rttirayapti.

Inson tafakkuriga xos bo'lgan tahlil qilish, umumlashtirish, konkretlashtirish, zidlash kabi aqliy faoliyat amallari, xususan, badiiy matnda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bunda matn yaratuvchi shaxs o'zi tavsiflayotgan obyektga ijodiy yondashib, uning ochilmagan qirralarini o'ziga xos tarzda ko'rsatib berishga harakat qiladi [5]. Bu kabi tafakkur amallari badiiy matnda ham o'z ifodasini topadi. Badiiy matnda mana shu jihatdan, ya'ni tafakkur amallarining nutqiy tuzilmadagi in'ikosi nuqtai nazaridan tadqiq etish uning lingvopoetik, antropotsentrik, psixolingvistik xususiyatlarini yoritishda ma'lum ahamiyat kasb etadi.

Badiiy asarlarda shaxs tafakkuriga xos bo'lgan tahlil qilish amalining namoyon bo'lishi ko'p uchraydi. Ijodkor bu usuldan o'zlari tasvirlayotgan obyekt mohiyatini to'laqonli yoritib berishda unumli foydalanadilar. Odil Yoqubovning “Ulug'bek xazinası” romanida Ali Qushchining Mirzo Ulug'bek haqidagi o'ylari tasvirida Ali Qushchi ruhiyatida ustoz boshiga tushgan ayanchli kunlardan qayg'urish kayfiyati ifodalanganini kuzatish mumkin. Bu holat inson ruhiy holatining ifodalanishi, insonning o'z olami bilan boshqalarga bo'lgan munosabati, hayotni o'z qarashlari orqali idrok etishi, tafakkur va tasavvur olami bilan bog'liqligi orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi: *“Nechun, nechun shunday bo'ldi? Nechun falakiyot ilmini idrok eta olgan, o'tkir tafakkur bilan koinot sirlarini ochib, yangi yulduzlar kashf etgan allomolar sarboni taxt va saltanatning bevafoqligini idrok eta olmadi? Nechun hamma davri – davron, hamma davlat va shoh va*

fotihlarning tarixini besh qo'lday biladigan bu zukko donishmand toj va hokimiyat hech bir kimsaga vafo qilmaganini tushunmadi yoxud tushunsa-da, uni tark etishga irodasi yetmadi? Nechun hokimiyat deb atalmish bu soxta shonshavkatdan voz kechib, butun tafakkuri o'tkir mushohadasi, butun salohiyatini ilm – fanga insonni ulug'lovchi ziyo – marifatga baxsh etadi? Nechun? [4;8]. Matnda insonga hos bo'lgan ikki qarama-qarshi xususiyat – buyuklik va tubanlikning o'zaro qiyosi “inson” konseptining ziddiyatli tomonini ochib berish uchun xizmat qiladi. Qiyoslash amali ko'p hollarda asar qahramonlarining ruhiyatidagi qarama-qarshiliklarni tasvirlashda yaqqol namoyon bo'ladi. Buni quyidagi matn tasvirida kuzatish mumkin: *Yo tavba! Bu toju taxtda ne sehr, ne sir-asror bor ekankim, unga o'ltirgan har bir kimsa darhol o'zgaradi? Odamiylikni, umri bebaqo bir faqiru-haqir ekanini darhol unitadi? Bu toju taxt, bu saltanat hech bir kimsaga vafo qilmasligini yodidan chiqaradi? Nainki shahzoda, bu taxt, hattokim amirul muslimin atalmish Amir Temurga ham vafo qilmaganini tushunmaydi? Ana, go'yo bobosi Amir Temurday gerdayib o'tiribdi! Bilmaydikim... yo'q to'xta, Muhammad Tarag'ay! Nechun sen shahzodadan ranjiysen? Bu vafosiz toju taxt, insonlar ustidan hokimlik qilmoq lazzati o'zingni ham aqli hushungdan ayirmagan edimu? Shahzoda yaxshi bo'lsun, yomon bo'lsun – o'z farzanding, o'z pushti kamaringdan bo'lgan zurruyoding emasmu? ... Ot tepkisini ot ko'taradur. Uni qarg'ab, yomonlik tilagandan yaxshi so'zingni so'zlab, nasihatiningni qilganing maqbul emasmu, E osiy banda? [4;95].* Ushbu matn Mirzo Ulug'bekning ichki monologi asosida qurilgan bo'lib, bevosita Ulug'bekning o'z farzandi Abdullatif haqidagi ziddiyatli o'ylari tasvirlangan. Unda ritorik so'roq gaplardan ham foydalanilganki, inson ruhiy holati shu vosita orqali to'laqonli ochib berilgan. Toju taxtdan ayrilgan Mirzo Ulug'bek xayolan o'g'li Abdullatifni qoralaydi, undan benihoyat ranjiydi, lekin otalik mehri g'olib kelib, beixtiyor shahzodani oqlash uchun dalillar keltiradi. Yozuvchi murakkab shaxsiy tuyg'ularni so'z bilan tariflaganda monologik nutqning ko'zga ko'rinmas, lekin barchaga ta'sir etuvchi “alanga”laridan foydalanadi. Odil Yoqubov “Ulug'bek xazinasi” romanida tarixiy qahramonlar tilining “kalitini” topa olgan. Bu kalit – qahramonlarning ichki monologidir. Shu

kalit bilan yozuvchi har bir qahramonining ichiga kirib boradi. Adib yaratgan monologlarda muallifning ovozi eshitilib turadi.

Odil Yoqubovning so‘ngi “Osiy banda” romani ilk bor jurnallar sahifalarida bosilganda, ko‘plar: “Nahotki?!” – deb hayqirib yuborganlar! Nahotki shunday, shunchalar bo‘lsa?! Lekin bu o‘sha turg‘unlik deb atalgan, hamma sohalarda tanazzul avj pallasiga kirgan sovet voqeligining ko‘z yumib bo‘lmas achchiqdan-achchiq haqiqati edi. Adib vafotidan so‘ng chiqayotgan bu kitobda o‘ttizinchi-qirquinchi yillar va undan keyingi tanazzul davrlarining bir-biridan dramatik voqealari, katta tarix tegrmoniga tushgan shaxslarning fojiali qismlari, xalqning haqiqiy erk, ozodlik, mustaqillik sari intilishlari to‘la haqqoniyati bilan aks ettirilgan. Ularda yuksak iqtidorli tarixiy shaxslar, davlat arboblari, yo‘lboshchilar, “inqilob fidokorlari”ning oddiy so‘z bilan baholash qiyin bo‘lgan g‘oyatda murakkab obrazlari, kechmishlari badiiy yuksak inkishofini topgan. Asar qahramoni Sarkorning ichki monoglari kitobxonni chuqur o‘ylashga va davr ruhiyatini tushuna olishiga ko‘mak beradi: *Telefondan “g‘iq-g‘iq “ ovoz keldi. Sarkor ko‘ngli allaqanday g‘ash bo‘lib, qayta to‘shakka cho‘zildi. Yo rab! O‘zbekistonday mamlakatni chorak asrdan buyon boshqarib kelayotgan katta arbob, Siyosiy byuro a‘zolidigiga nomzod odamning unda qanday ishi bo‘lishi mumkin? Ha, g‘alati dunyo ekan bu dunyo! Bir ojiz banda donishmanddan: “Bu dunyoga kelib nima ko‘rdingiz?” deganda, donishmand: “Hech nima, ko‘zimni ochdim-u, yumdim”, - deb javob bergan ekan. Qarang, qattiqqo‘l mo‘ylovni badnom qilib, uning taxtiga o‘tirib olgan sergap Katta Ota, to‘ng‘iz ovlash bahonasida Sarkorning makoniga kelib, rosa o‘yin ko‘rsatib ketganiga mana qancha vaqt o‘tib ketibdi. U Amerikaga borib, u yerdan qaytgach, Amerikani Amerika qilgan jo‘xori deb, butun mamlakatni – Janubiy o‘lkalardan tortib Shimoliy Qutbgacha – hamma yoqni jo‘xorizorga aylantirganlarichi!.. [3; 27].*

Yozuvchi o‘zi hayotda ko‘rgan, bilgan voqealarni haqqoniy badiiy tarixga, real shaxslarni esa o‘zida davr muhrini tashigan, davrning yulduzi va sayyorasi bo‘lgan jozibador, badiiy go‘zal, yuksak darajada ibratli badiiy qahramonlarga aylantira bilgan. Odil Yoqubov bu asarlarini xalq uchun yozgan. U hamon

xalqning xizmatida kamarbasta. Inson qalbi sirlarining poyoniga yetib bo‘lmaydi. Negaki davrlar osha insonning ongi va tushunchasi o‘sib, o‘zgarib borgan kabi, qalbi ham o‘sib boradi. Ijtimoiy hodisalarning tasvirida o‘sha davr kishilari ma’naviy-ruhiy dunyosining talqini hal etuvchi ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alpanova Sh. Nutqiy faoliyat jarayonidagi ruhiy holatlarning o‘zbek tilining turli sath birliklari vositasida aks etishi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (RhD) diss. – Farg‘ona, 2018. – 145 b.
2. Ёкубов О. Диёнат: роман. – Тошкент: Ёш гвардия, 1979. – 288 б.
3. Ёкубов. Осий банда. Хотиралар. Қарноқ: асарлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 192 б.
4. Ёкубов О. Улуғбек хазинаси: роман. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974. – 320 б.
5. Raximov A.U. O‘zbek tilshunosligi taraqqiyotining imperik, nazariy va metanazariy bosqichlari // Tilshunoslikning dolzarb masalalari. VI kitob. – Toshkent, 2013. – 69 b.
6. Серебренников Б. А. Роль Человеческого фактора в языке. – Москва: Наука, 1988.
7. Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari o‘zbek nasrida nutq poetikasi. – Toshkent, 2002.
8. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent, 2013.